



SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI




# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI



*(2024-yilning yanvar-dekabr  
oylari uchun dastlabki  
ma'lumot)*

## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 46 213,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 107,6 % ni tashkil etdi.



yanvar-dekabr FHI, %






■ mlrd so'm — FHI %

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (28 445,8 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (20 737,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm    ■ o'sish sur'ati, %

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-dekabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 46 213,8 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,9 % ni, tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami Sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (36,3 %), Jomboy tumani (8,6 %), Urgut tumani (8,7 %), hamda Samarqand (6,6 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (117,6 %), Kattaqo'rg'on tumanida (115,3 %) hamda Oqdaryo tumanida (110,3 %) kuzatildi.




## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2024-yil yanvar-dekabr oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, ishlab chiqaradigan sanoatda 8,4 % ga, Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash 10,6 % ga, oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 35,1 % ga hamda Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish 14,9 % ga pasayishi kuzatildi.

### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 290,0 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,9 % (15,0 %), o'rta-quyi texnologiyali 22,6 % (20,2 %) va quyi texnologiyali 59,6 % (60,2 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 151,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,4 % (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 20,2 % (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 38,6 % (2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr	2024-yil yanvar-dekabr	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	50,9	42,8	-5,5
Paxta tolasi, ming t.	65,1	44,4	- 7,3
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	27,0	29,5	2,5
Chaqiq tosh ming t.	623,1	491,8	- 131,3
Aroq – ming litr 100 % spirt	71,6	253,2	181,6
Tamaki – mln dona	10 521,7	11 132,5	610,8
Piva – ming litr	23 647,0	18 731,0	- 4 916,0

2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda tozalangan paxta yog'i mahsulotlari 29,5 ming tonna (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 8,9 % ga ko'p) hamda 491,8 ming tonna chaqiq tosh (21,1 % kam) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 3 467 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,1 % ga kamaygan.



2024-yil

3 467 dona

2024-yil

97,9 %

2023-yil

3 541 dona

2023-yil

86,3 %

2022-yil


4 094 dona

2022-yil

92,4 %

## Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-dekabr oylarida 827 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga kamaygan.



2024-yil

827 dona

2024-yil

89,8 %

2023-yil

921 dona

2023-yil

67,9 %

2022-yil

1 357 dona


2022-yil

135,3 %






### Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 103,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,4 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 92,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4 326,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 96,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa, 151,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 840,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 27,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 113,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,5 %, fizik hajm indeksi esa, 106,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 13 611,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 138,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 592,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 17,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,5 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 7 646,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 %, fizik hajm indeksi 110,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 206,8 mlrd so'mni tashkil etdi.





### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 193,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 134,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 651,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 159,2 % ni, tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 128,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 535,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 124,6 % ni tashkil etgan..

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 121,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi 1 220,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 113,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 142,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 393,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 115,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 102,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 307,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 88,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,1 %, fizik hajm indeksi 91,7 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 3 724,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 845,5 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr	2024-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	187,2	241,2	54,0
Issiqlik energiyasi, mln gkal	18,0	1,0	17,0


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 273,4 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr	2024-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	117 683,5	145 485,6	27 802,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	104 869,0	122 153,7	17 284,7
Plastmassa chiqindilari, tonna	2 646,3	3 185,2	538,9


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm



## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 733 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 045 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 22,0 %) Samarqand shahriga, 682 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 535 tasi (11,3 %) Samarqand tumaniga, 355 tasi (7,5 %) Pastdarg'om tumaniga va 220 tasi (4,6 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Jami yangi tashkil etilgan

**1 006 ta**

2024-yil yanvar-dekabr

**1 225 ta**

2023-yil yanvar-dekabr

**1 899 ta**

2022-yil yanvar-dekabr



### Jami faoliyat yuritayotgan (1-yanvar holatiga)

**4 733 ta**


2025-yil

**6 151 ta**

2024-yil

**8 854 ta**


2023-yil





## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 23 694,7 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,3 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr  
mlrd soʻm



yanvar-dekabr  
ulushi, % da



■ mlrd soʻm ■ ulushi, %



## TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQRISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING AMALGA OSHIRILISHI (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 112 ta loyiha bo'yicha 4 297,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 18,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 707 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

